



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI AKSIYADORLIK TIJORAT XALQ BANKI

JOINT-STOCK COMMERCIAL XALQ BANK OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

BOSHQARUV QARORI

2022y. "26" aprel

№ 49/1

Toshkent sh.

"O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki tizimida kontragentlarni tekshirish va dastlabki malaka tanlovini o'tkazish bo'yicha" Yo'riqnomani tasdiqlash haqida

O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuni va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 2021-yil 9-oktabrda 3324-son bilan ro'yxatga olingan "Korporativ buyurtmachilarning xarid komissiyalari tomonidan dastlabki malaka tanlovini o'tkazish tartibi to'g'risida"gi namunaviy Nizom asosida Xalq banki tizimida kontragentlarni tekshirish va dastlabki malaka tanlovini o'tkazish bo'yicha ishlab chiqilgan ichki me'yoriy hujjatni tartibga solish maqsadida, bank Boshqaruvi

QAROR QILADI:

1. Bankning tarkibiy bo'linmalari tomonidan ishlab chiqilgan ichki me'yoriy hujjatlarning amaldagi qonunchilikka mosligini ta'minlash bo'yicha Ekspert guruhining 2022-yil 14-apreldagi 45-sonli bayoni ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. "O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki tizimida kontragentlarni tekshirish va dastlabki malaka tanlovini o'tkazish bo'yicha" Yo'riqnoma ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Bank markaziy apparatining barcha tarkibiy bo'linmalari hamda hududiy va tuman (shahar) filiallari "O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki tizimida kontragentlarni tekshirish va dastlabki malaka tanlovini o'tkazish bo'yicha" Yo'riqnoma bilan bog'liq amaliyotlarni unga qat'iy amal qilgan holda tashkil etsin.

4. **Ijro nazorati departamenti** (F. Kurbanov) ushbu qaror nusxasini bank markaziy apparatining barcha tarkibiy bo'linmalari hamda hududiy va tuman (shahar) filiallariga ma'lumot va ijro etish uchun yetkazilishini ta'minlasin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish **Boshqaruv Raisi o'rinbosari F. Ruziyev** zimmasiga yuklansin.

Boshqaruv Raisi

Sh. Atabayev



Aksiyadorlik tijorat
Xalq banki Boshqaruvining
2022-yil 26-aprel dagi
49/1 -son qaroriga
ilova

O‘zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki tizimida
kontragentlarni tekshirish va dastlabki malaka tanlovini o‘tkazish bo‘yicha

Yo‘riqnoma

Ushbu Yo‘riqnoma O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 2021-yil 9-oktabrda 3324-son bilan ro‘yxatga olingan “Korporativ buyurtmachilarning xarid komissiyalari tomonidan dastlabki malaka tanlovini o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi namunaviy Nizom talablari asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki (keyingi o‘rinlarda – bank) tizimida xarid komissiyalari tomonidan kontragentlarni tekshirish, dastlabki malaka tanlovini tashkil etish mezonlarini belgilaydi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Yo‘riqnomada quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

ijrochi – Xarid komissiyasi raisi farmoyishi asosida tasdiqlangan ishchi guruh;

xarid komissiyasining mas’ul kotibi (keyingi o‘rinlarda – kotib deb yuritiladi) – xarid komissiyasining tezkor faoliyatini tashkil etuvchi ovoz berish huquqiga ega bo‘lmagan xodim;

xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi (keyingi o‘rinlarda – ishtirokchi deb yuritiladi) – xarid qilish tartib-taomilida qatnashishdan manfaatdor bo‘lgan, dastlabki malaka tanlovi uchun talabnoma taqdim etgan O‘zbekiston Respublikasining rezidenti yoki norezidenti bo‘lgan jismoniy yoki yuridik shaxs;

talabnoma – ishtirokchining yuridik maqomi, moliyaviy, tijorat, texnik imkoniyatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan hujjatlar to‘plami;

kontragent – bankning xarid jarayonlari doirasida shartnomaviy munosabatlarga kirishishni rejalashtirayotgan har qanday yuridik yoki jismoniy shaxs;

kontragent/kontragentning benefitsiar egasi (yakuniy benefitsiar) - kontragentning xususiy egasi bo‘lgan yoki ushbu Kontragent uchun majburiy bo‘lgan ko‘rsatmalar berish, qabul qilinayotgan qarorlarga ta’sir ko‘rsatish yoki boshqacha

tarzda uning xarakatlarini bevosita yoki bilvosita nazorat qilish huquqi yoki imkoniyatiga ega bo'lgan jismoniy shaxs;

korrupsiyaviy harakatlar – xodim tomonidan bevosita yoki bilvosita shaxsan yoki uchinchi shaxslar orqali pora beruvchi manfaatlari yo'lida harakat yoki harakatsizlik uchun moddiy manfaatdor bo'lishi, shu jumladan pul, qimmatbaho qog'oz, boshqa ko'rinishdagi mulk va mulkiy huquqlar, mulkiy xarakterdagi xizmatlar olish, talab qilish, undirish, taklif qilish yoki berish, pora berish va/yoki olish yoki bunda vositachilik qilishda, rasmiyatchiliklarni soddalashtirish uchun to'lovlar undirish (pora olish) va boshqa noqonuniy maqsadlarda o'z xizmat vazifalaridan noqonuniy foydalanish;

manfaatlar to'qnashuvi – bank xodimining shaxsiy manfaati (bevosita yoki bilvosita) u tomonidan xizmat vazifalarini tegishli tarzda bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoki ko'rsatishi mumkin bo'lgan va xodimning shaxsiy manfaati bilan bank manfaatlari o'rtasida ziddiyat yuzaga kelayotgan yoki kelishi mumkin bo'lgan vaziyat;

maxfiy axborot – bu olinishi, ishlanishi, uzatilishi yoki foydalanishi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi yoki axborot egasining ichki hujjatlariga muvofiq cheklanadigan har qanday shakldagi axborot;

tashabbuskor – bankning tegishli tarkibiy bo'linmasi;

xodimning shaxsiy manfaatdorligi – bank xodimi, uning yaqin qarindoshi yoki xodim bilan bog'langan shaxslar tomonidan xodimning mansab yoki xizmat vazifalarini tegishli tarzda bajarishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan (shaxsiy, ijtimoiy, moliyaviy, siyosiy va boshqa tijorat yoki notijorat manfaatlari) pul mablag'lari, moddiy va nomoddiy qadriyatlar, boshqa mulk, foyda, imtiyoz va afzalliklar ko'rinishidagi shaxsiy foyda olish;

yaqin qarindoshlar – qarindosh yoki quda tomondan qarindosh bo'lgan shaxslar, ya'ni ota-ona, tug'ishgan va o'gay aka-uka va opa-singillar, er-xotin, farzand, shu jumladan farzandlikka olinganlar, bobo, buvi, nevaralar, shuningdek er-xotinning ota-onasi, tug'ishgan va o'gay aka-uka va opa-singillari.

2. Ishchi guruh tarkibiga Ichki nazorat va komplayens, Risk menejment, Filliallar tarmog'ini boshqarish, Buxgalteriya hisobi va hisoboti hamda Informations texnologiyalari departamentlarining malakali xodimlari jalb etiladi.

3. Zaruratga ko'ra ishchi guruh tarkibiga boshqa tarkibiy bo'linmalar xodimlari jalb etilishi mumkin.

4. Kontragentlarni tekshirish eng yaxshi takliflarni tanlash (keying o'rinlarda tanlash) va tender orqali amalga oshiriladigan xaridlarga nisbatan qo'llaniladi.

5. Dastlabki malaka tanlovidan muvaffaqiyatli o'tgan salohiyatli kontragentlar



bir yildan ortiq bo'lmagan muddat davomida bankning tanlash va tenderlarida ishtirokchi sifatida qatnashishi mumkin.

6. Kontragentlarni tekshirish va dastlabki malaka tanlovini o'tkazish tartibi va baholash mezonlari barcha uchun bir xil hisoblanadi hamda davlat xaridlarining asosiy prinsiplariga zid bo'lmashligi lozim.

2-bob Xarid jarayonida kontragentlarini tekshirishning maqsadlari

7. Xarid jarayonlari kontragentlarini tekshirishning maqsadlari quyidagilardan iborat:

manfaatlar to'qnashuvi va shaxsiy manfaatdorligi bilan bog'liq bo'lgan korrupsiyaviy xatarlarni kamaytirish;

insofsiz ijrochi bilan shartnoma tuzish xatarini kamaytirish;

xarid jarayoni ishtirokchisining shartnomada belgilangan tovarlarni yetkazib berish

yoki xizmat ko'rsatish, ishlarni bajarish imkoniyatini baholash;

bankning mablag'laridan samarali foydalanish;

kontragent bilan shartnoma tuzish to'g'risidagi qarorni tegishli darajada ehtiyotkorlik bilan qabul qilish.

8. Xarid jarayonlari kontragentlarini tekshirish xaridning barcha kontragentlari o'rtasidagi aloqa mavjudligi ehtimoli nuqtai-nazaridan ham amalga oshiriladi.

3-bob. Kontragentlar (ishtirokchilar)ning talabnoma berish tartibi

9. Dastlabki malaka tanlovini o'tkazishda kontragentlar tomonidan taqdim etiladigan hujjatlar hamda ularni taqdim etish muddati xarid qilish hujjatlarida ko'rsatilishi lozim. Bunda, kontragentlar tomonidan quyidagi hujjatlarni taqdim etish nazarda tutiladi:

ta'sis hujjatlari va davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnoma;

moliyaviy hisobotlar (soliq organlari tomonidan qabul qilinganligi tasdiqlangan holda);

ekologik, gigiyenik sertifikatlash, kalibrlash to'g'risidagi tegishli guvohnomalar yoki sinov bayonnomalari, sifat sertifikatlari, muvofiqlik sertifikatlari, shu jumladan xavfsizlik talablariga muvofiqlik sertifikatlari, tovar (ish, xizmat)lar pasportlari (tovar (ish, xizmat)larning xususiyatlaridan kelib chiqib mazkur hujjatlarning bo'lishi majburiyligi talab etiladigan hollarda);

kontragentlarning ishbilarmonlik obro'sini (ishchi-xodimlari malakasi, ish tajribasi, shu jumladan maxsus faoliyat bo'yicha tajribasi) tasdiqlovchi hujjatlar.

Kontragentlar o'z xohishiga ko'ra faoliyatiga doir qo'shimcha ma'lumotlar va hujjatlarni taqdim etishi mumkin.

10. Talabnoma kontragentlar tomonidan tanlash va tender o'tkazish to'g'risidagi e'londa va xarid qilish hujjatlarida belgilangan talablar asosida takliflar bilan birga yuboriladi.

4-bob. Kontragentlar (ishtirokchilar)ni o'rganish (tekshirish) tartibi

11. Ijrochi tomonidan kontragentlarni tekshirish, kontragentlar tomonidan taqdim qilgan talabnomalar, tasdiqlovchi hujjatlarni va boshqa tegishli ma'lumotlarni tahlil qilish asosida amalga oshiriladi.

12. Zaruriyat bo'lganda, kontragentlarning ishlab chiqarish jarayoni va mahsulotlarini qo'shimcha ravishda o'rganish uchun xarid komissiya tomonidan texnik audit o'tkazish to'g'risida tegishli qaror qabul qilinishi mumkin.

13. Ijrochi va kotib tomonidan uch ish kunidan ortiq bo'lmagan muddatda kontragentlar taqdim qilgan hujjatlarning to'liqliligi hamda kontragentlar haqidagi quyidagi ma'lumotlar o'rganiladi:

ushbu yo'riqnoma ilovasiga muvofiq Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalidagi ma'lumotlar (yoki boshqa mamlakatlarning o'xshash manbalari);

kontragent faoliyatning litsenziyalanadigan turi bilan shug'ullanganda, uning "Litsenziya" axborot tizimi yoki litsenziyalovchi organlarning rasmiy saytlaridagi litsenziyalar reyestrda mavjudligi;

kontragentlarning maxsus axborot portalida insofsiz ijrochilar reyestrda, shuningdek to'lanishi lozim bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'i miqdorini kamaytirish huquqini suiiste'mol qilgan korxonalar ro'yxatida mavjud yoki mavjud emasligi;

kontragentning ishbilarmonlik obro'si to'g'risidagi, shu jumladan kontragentlarning rasmiy veb-sayti, ommaviy-axborot vositalari, u a'zo bo'lgan tarmoq uyushmalari va birlashmalari hamda boshqa Internet jahon axborot tarmog'idagi veb-sayt va tegishli axborot tizimlari orqali olingan ma'lumotlar.

Ijrochi va kotib tomonidan o'tkazilgan o'rganish natijalari xarid komissiyasiga taqdim etiladi va xarid komissiyasining yig'ilishida ko'rib chiqiladi.

14. Xarid komissiyasi ijrochi va kotib tomonidan taqdim etilgan o'rganish natijalarini ko'rib chiqadi va quyidagilarni aniqlaydi:

kontragentlarning o'z vaqtida sifatli mahsulot ishlab chiqarish salohiyati, ularning ishlab chiqarish quvvati va ish tajribasi;

kontragentlarning moliyaviy hisobotlari, shuningdek soliqlar va yig'imlarni to'lash bo'yicha muddati o'tgan qarzdorligi mavjud emasligi;

imtiyozli soliq rejimidagi moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishda ma'lumotlarni oshkor qilish va taqdim etishni nazarda tutmaydigan davlatlar yoki hududlarda (offshor hududlar) kontragentlar va ularning bank hisobraqamlari ro'yxatdan o'tkazilganligi yoki o'tkazilmaganligi;

ta'sis hujjatlari va faoliyatining qonuniyligi;
manfaatlar to'qnashuvi va affillanganlik holatlari mavjud emasligi;
kontragentlarning joriy buyurtmachi bilan ilgari tuzilgan shartnomalar bo'yicha o'z zimmasiga olgan majburiyatlarning ijro etilmaganligi yoki lozim darajada ijro etilmaganligi bo'yicha sudda ishi ko'rilganligi;
kontragentlarga nisbatan bankrotlik tartib-taomillarining mavjud emasligi.

15. Xarid komissiyasi zarur hollarda kontragentlarning roziligi bilan va ularni faoliyatiga aralashmasdan joyiga chiqqan holda texnik audit o'tkazishi mumkin. Bunda, korxonaning ishlab chiqarish quvvati va mahsulotlarning sifati o'rganiladi.

5-bob. Tekshirish natijalarini rasmiylashtirish tartibi

16. Quyidagi kontragentlar dastlabki malaka tanlovidan o'tmagan hisoblanadi:
malaka tanlovi uchun zarur hujjatlar to'plamini to'liq taqdim etmagan;
o'ziga nisbatan bankrotlik tartib-taomillari joriy etilgan;
Insofsiz ijrochilarning yagona reyestrda qayd etilgan;
imtiyozli soliq rejimidagi moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishda ma'lumotlarni oshkor qilish va taqdim etishni nazarda tutmaydigan davlatlar yoki hududlarda (offshor hududlar) ro'yxatdan o'tkazilgan yoki mazkur hududlarda bank hisobraqamlari ochgan kontragentlar;
solliqlar va yig'imlarni to'lash bo'yicha muddati o'tgan qarzdorligi mavjud bo'lgan;
tanlash va tender o'tkazish to'g'risidagi e'lon berilgan sanada davlat ro'yxatidan o'tganiga olti oy to'lmagan;
manfaatlar to'qnashuvi va affillanganlik holatlari mavjud bo'lgan;
xarid komissiyasi tomonidan ishchi-xodimlar malakasi, ish tajribasi, shu jumladan maxsus faoliyat bo'yicha tajribasi, kontragentlarning o'z vaqtida sifatli mahsulot ishlab chiqarish yoki yetkazib yetkazib salohiyati va/yoki quvvati yetarli emas deb topilgan.

17. Dastlabki malaka tanlovi natijalari xarid komissiyasining bayonnomasi bilan rasmiylashtiriladi.

18. Xarid komissiyasi bayonnoma rasmiylashtirilgan kundan boshlab uch ish kunidan kechiktirmasdan dastlabki malaka tanlovidan o'tmagan kontragentlarning takliflarini rad etish sabablarini ko'rsatgan holda ularni xabardor qiladi.

19. Malaka tanlovidan o'tgan kontragentlar ro'yxati bank tomonidan yuritiladi.

6-bob. Yakuniy qoidalar

20. Ushbu Yo'riqnoma Bank Boshqaruvi qarori bilan tasdiqlangan sanadan boshlab kuchga kiradi.




21. Ushbu Yo'riqnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar Bank Boshqaruvi qarori bilan amalga oshiriladi.

22. Mazkur Yo'riqnoma talablari amaldagi shu sohani tartibga soluvchi qonun hujjatlari normalari asosida tayyorlangan bo'lib, ushbu hujjatning qo'llanishi natijasida kelib chiqqan huquqiy munosabatlar tegishli qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

23. Mazkur Yo'riqnomaga rioya etish Xalq banki tizimi mansabdor shaxslari va mutaxassislari uchun majburiydir.

Ma'muriy xo'jalik departamenti direktori



X. Mamataliyev



O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat
Xalq banki tizimida kontragentlarni
tekshirish va dastlabki malaka tanlovini
o'tkazish bo'yicha Yo'riqnomaga
ilova

Kontragentlarni tekshirish uchun ochiq axborot manbalari

1. Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar to'g'risidagi ma'lumotlarni tekshirish Davlat xizmatlari agentligi platformasi - https://fo.birdarcha.uz/s/ru_landing
2. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi - <http://registr.stat.uz/>
3. Soliq organlarining elektron davlat xizmatlari portali - <https://my2.soliq.uz/main/info/debtors?lang=uz>
4. O'zbekiston Respublikasi ochiq ma'lumotlar portali - <https://data.gov.uz/ru>
5. Toshkent shahar yer resurslari va Davlat kadastr boshqarmasi - <http://kadastr.uz/ru/>
6. Insofsiz ijrochilarning yagona reestri - <http://xarid.uz/unfairexecutor>
7. Iqtisodiy, ma'muriy, jinoiy va fuqarolik sudlarining sud hujjatlari - <https://public.sud.uz/#!/sign/view>
8. Ofshor zonalar ro'yxati- <http://www.fatf-gafi.org/publications/high-risk-and-other-monitored-jurisdictions/documents/call-for-action-february-2021.html>
9. AQSh maxsus toifadagi va taqiqlangan shaxslar ro'yxati (yoki WorldCheck ma'lumotlar bazasi)- <https://sanctionssearch.ofac.treas.gov/>

Ushbu ro'yxat ijrochi tomonidan tekshirish uchun tavsiya etilgan manbalar ro'yxati bo'lib, zarur bo'lganda kengaytirilishi mumkin.

“TASDIQLAYMAN”

O‘zbekiston Respublikasi
aksiyadorlik tijorat Xalq banki
Boshqaruvi Raisining birinchi
o‘rinbosari – Ekspert guruhi rahbari



Z. Azimov

2022-yil

**Bankning tarkibiy bo‘linmalari tomonidan ishlab chiqilgan ichki me‘yoriy hujjatlarning
amaldagi qonunchilikka mosligini ta‘minlash bo‘yicha**

Ekspert guruhi

BAYONI

“14” - aprel 2022-yil

45... – son

Toshkent shahri

Qatnashdilar:

Ekspert guruhi rahbari :

Z. Azimov – Boshqaruv Raisining birinchi o‘rinbosari

**Ekspert guruhi rahbari
o‘rinbosari :**

T. Raxmonov – Boshqaruv Raisi o‘rinbosari

Ekspert guruhi a‘zolari:

G. Alimova, N. Tashmatov, F. Kurbanov,
F. Bozorova, U. Yuldashev, A. Turxolov,
A. Korayev.

Taklif kirituvchi:

X. Mamataliyev

KUN TARTIBI:

**O‘zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki tizimida
kontragentlarni tekshirish va dastlabki malaka tanlovini o‘tkazish bo‘yicha
Yo‘riqnomaning ko‘rish chiqish haqida**

(Z.Azimov, T.Raxmonov, ..., Z.Azimov)

Yig‘ilishni Xalq banki Boshqaruvi Raisining birinchi o‘rinbosari – Ekspert guruhi rahbari Z. Azimov ochdi va kun tartibidagi masalani e‘lon qilish uchun Ma‘muriy-xo‘jalik departamenti direktori X. Mamataliyevga so‘z berdi.

Shundan so‘ng, X. Mamataliyev o‘z so‘zida O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 2021-yil 9-oktabrdagi 3324-son bilan ro‘yxatga olingan “Korporativ buyurtmachilarning xarid komissiyalari tomonidan dastlabki malaka tanlovini o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi namunaviy Nizom talablari asosida “O‘zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki tizimida kontragentlarni tekshirish va dastlabki malaka tanlovini o‘tkazish bo‘yicha” Yo‘riqnomaning loyihasi ishlab chiqilganligini ta’kidlab o‘tdi hamda mazkur Yo‘riqnoma loyihasi Ekspert guruhi a‘zolari muhokamasiga havola etildi.

Mazkur Yo‘riqnoma Xalq bankining amaldagi ichki me‘yoriy-huquqiy hujjatlari talablariga muvofiq kontragentlarni tekshirish, davlat xaridlarida bank faoliyatini to‘g‘ri tashkil

etish va xaridlarda korrupsiyaviy xatarlarni kamaytirish maqsadida ishlab chiqilganligi ma'lum qilindi.

Ekspert guruhi a'zolari muhokamaga kiritilgan ushbu hujjat loyihasi bo'yicha o'z xulosalarini bayon etib, mazkur hujjatlarning loyihasi amaldagi qonunchilik talablariga muvofiqligini ta'kidlab o'tdilar.

Ma'muriy-xo'jalik departamenti direktori tomonidan muhokamaga kiritilgan hujjat loyihasi muhokama qilinib, Ekspert guruhi

QAROR QILADI:

1. "O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki tizimida kontragentlarni tekshirish va dastlabki malaka tanlovini o'tkazish bo'yicha" Yo'riqnomaning loyihasi ilovaga muvofiq ma'qullansin va bank Boshqaruvi tasdig'iga kiritilsin.

Ekspet guruhi rahbari o'rinbosari:


Boshqaruv Raisi o'rinbosari



..... **T. Raxmonov**


Ekspert guruhi a'zolari:

Bank brendi va axborot xizmati rahbari



..... **G. Alimova**

Yuridik departamenti direktori



..... **N. Tashmatov**

Ijro nazorati departamenti direktori *B.B.B.*



..... **F. Kurbanov**

Buxgalteriya hisobi va hisoboti departamenti
direktori – bosh buxgalter v.v.b.



..... **F. Bozorova**

G'aznachilik departamenti direktori



..... **U. Yuldashev**

Murojaatlar bilan ishlash departamenti
Bank xizmatlari iste'molchilarining huquqini
himoya qilish bo'limi boshlig'i



..... **A. Turxolov**


Metodologiya bo'limi bosh mutaxassisi



..... **A. Korayev**

Taklif kirituvchi:

Ma'muriy-xo'jalik departamenti direktori



..... **X. Mamataliyev**

**Bankning ichki me'yoriy hujjati loyihasi yuzasidan
HUQUQIY XULOSA**

2022-yil 08-aprel

Toshkent shahri

**Ichki me'yoriy hujjat kiritilgan vaqt:
2022-yilning 07-aprel kuni**

Ichki me'yoriy hujjat loyihasini kiritgan va tayyorlagan mas'ul tarkibiy bo'linma hamda mazkur bo'linma rahbari:

Ma'muriy-xo'jalik departamenti direktori: X.Mamataliyev

Ichki me'yoriy hujjatning nomi:

O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki tizimida kontragentlarni tekshirish va dastlabki malaka tanlovini o'tkazish bo'yicha Yo'riqnoma loyihasi

Xulosa taqdim etilishidan maqsad:

Kiritilgan ichki me'yoriy hujjatning amaldagi qonunchilik va O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan qo'yilgan talablariga muvofiq holda rasmiylashtirilishini ta'minlashdan iboratdir.

Mazkur xulosa, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 05.04.2000-yilda 916-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan "Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining ichki me'yoriy hujjatlariga qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi Nizom, Adliya vazirligida 28.02.2014-yilda 2565-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan "Idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni tayyorlash va qabul qilish" Qoidalar talablari asosida tayyorlandi.

Ushbu hujjat 6 ta bob, 23 ta banddan iborat bo'lib, undagi boblar quyidagi yo'nalishlarga ajratilgan:

Umumiy qoidalar;

Xarid jarayonida kontragentlarni tekshirishning maqsadlari;

Kontragentlar (ishtirokchilar)ning talabnoma berish tartibi;

Kontragentlar (ishtirokchilar)ni o'rganish (tekshirish) tartibi;

Tekshirish natijalarini rasmiylashtirish tartibi;

Yakuniy qoidalar.

Xulosa:

Mazkur hujjat loyihasi "Idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni tayyorlash va qabul qilish" Qoidalar talablariga muvofiq keladi.

**Yuridik departamenti
bo'lim boshlig'i**



I.Usarov

Kelishildi:

**Yuridik departamenti
direktori**



N.Tashmatov